



MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION OF YOUTH IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Munis Usmanovna Karabayeva

Basic Doctoral Student of Namangan State University

m.karabaeva@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, youth, military-patriotic education, national identity, social institutions, education system.

Received: 26.01.26

Accepted: 27.01.26

Published: 28.01.26

Abstract: This article examines the key factors influencing the formation of military-patriotic education among youth in the context of globalization from a scientific and theoretical perspective. The study analyzes the socio-political and cultural impact of globalization processes, the expansion of the information space, and the factors affecting youth consciousness. The role of the education system, social institutions, and state policy in fostering military-patriotic education is substantiated. The findings of the research aim to develop practical recommendations for strengthening patriotic values among youth and ensuring national security.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI

Munis Usmanovna Karabayeva

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktorant

m.karabaeva@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: globallashuv, yoshlar, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, milliy ong, ijtimoiy institutlar, ta'lim tizimi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning asosiy omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida globallashuvning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ta'siri, axborot makonining kengayishi hamda yoshlar ongiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik

tarbiyasini rivojlantirishda ta'lim tizimi, ijtimoiy institutlar va davlat siyosatining o'rni asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari yoshlarda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash va milliy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Мунис Усмановна Карабаева

Базовый докторант

Наманганский государственный университет

m.karabaeva@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, молодежь, военно-патриотическое воспитание, национальное сознание, социальные институты, система образования.

Аннотация: В статье рассматриваются основные факторы формирования военно-патриотического воспитания молодежи в условиях глобализации с научно-теоретической точки зрения. В ходе исследования анализируется социально-политическое и культурное влияние глобализационных процессов, расширение информационного пространства, а также факторы, воздействующие на сознание молодежи. Обоснована роль системы образования, социальных институтов и государственной политики в развитии военно-патриотического воспитания. Результаты исследования направлены на выработку практических рекомендаций по укреплению патриотического духа молодежи и обеспечению национальной безопасности.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida dunyoda sodir bo'layotgan qurolli mojarolar, mahalliy urushlar va geosiyosiy qarama-qarshiliklarning kuchayib borishi yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ochiq axborot makonining kengayishi va mafkuraviy tahdidlarning ko'payishi yoshlar ongiga turli yot g'oyalar ta'sirini kuchaytirib, ularning milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatiga bo'lgan munosabatida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli globallashuv jarayonlari sharoitida yoshlarda

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning asosiy omillarini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ijtimoiy-falsafiy ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi, eng avvalo, yoshlarning ma'naviy-axloqiy yetukligi, vatanparvarlik darajasi hamda ularning davlat va jamiyat oldidagi burchiga bo'lgan mas'uliyat hissi bilan belgilanadi. Ayniqsa, harbiy xizmatga ongli munosabatni shakllantirish, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash va ularda harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash milliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, davlatning harbiy-texnik salohiyati qanchalik yuqori bo'lmasin, agar jamiyat a'zolarida vatanparvarlik va fuqarolik birdamligi yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa, bunday davlatning uzoq muddatli barqarorligi ta'minlanmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar, ushbu jarayonda ta'lim tizimi, ijtimoiy institutlar va davlat siyosatining o'rnini hamda yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Globallashuv sharoitida yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish masalasi so'nggi yillarda ijtimoiy fanlar, pedagogika, siyosatshunoslik va falsafa yo'nalishlarida faol o'rganilmoqda. Mazkur muammo, avvalo, globallashuv jarayonlarining milliy ong, qadriyatlar tizimi va yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda globallashuv axborot oqimlarining erkinlashuvi, madaniy chegaralarning nisbatan yo'qolishi hamda transmilliy mafkuraviy ta'sirlarning kuchayishi bilan izohlanib, bu jarayon yoshlar ongida vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyati masalalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etishi ta'kidlanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ko'pincha milliy xavfsizlik, fuqarolik ongini shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash omili sifatida yoritiladi. Ushbu asarlarda yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularda vatan himoyasiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish davlatning strategik vazifalaridan biri ekanligi qayd etiladi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy identifikatsiya va vatanparvarlik tuyg'ularini saqlab qolish harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining muhim funksiyasi sifatida ko'riladi.

Mahalliy ilmiy manbalarda esa yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish masalasi asosan ma'naviy-axloqiy tarbiya, milliy g'oya, tarixiy xotira va an'analar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Tadqiqotchilar yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabati ularning ma'naviy tayyorgarligi, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar hamda oilaning ijtimoiy instituti bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida davlat siyosati, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tashkilotlarining roli alohida ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Yangi davr ijtimoiy-siyosiy jarayonlari kontekstida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari A. Mirzaev tomonidan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan. Harbiy ta'lim yo'nalishida ushbu muammoning pedagogik va tashkiliy jihatlari A. Xonimqulov tomonidan chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalari misolida tadqiq etilgan. Shuningdek, Sh. Akramova, M. Umarov va S. Usmonov yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari va umumiy nazariy asoslarini yoritgan.

Mazkur yo'nalishda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tamoyillari va vositalari N. Hamroev hamda S. Utanov tadqiqotlarida alohida ilmiy tahlil etilgan. Vatanparvarlik, jasorat va sadoqat tushunchalarining ma'naviy-falsafiy talqini U. Jumanazarov asarlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa, K. Usmonov o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy merosida harbiy-vatanparvarlik g'oyalarining tarixiy ildizlarini ochib bergan.

Shuningdek, yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi asosida harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari A. Redjaboeb, milliy g'oyaning ushbu jarayondagi o'rni esa R. Qurbohov tadqiqotlarida keng yoritilgan. Pedagogik jihatdan ushbu jarayonni takomillashtirish masalalari A. Yoqubov hamda X. Haydaraliev tomonidan oliy ta'lim muassasalari talabalari misolida o'rganilgan. Harbiy xizmatchilar shaxsini shakllantirishda vatanparvarlik va milliy g'ururning o'rni H. Saidov[4] tadqiqotlarida profes-siogramma nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda harbiy-vatanparvarlik masalasi tarixiy, falsafiy, pedagogik va ijtimoiy jihatlardan keng o'rganilgan bo'lsa-da, globallashuv va zamonaviy xavf-xatarlar sharoitida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning kompleks va tizimli mexanizmlarini yanada chuqurroq ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish omillari ko'pincha alohida yo'nalishlar doirasida o'rganilgan bo'lib, mazkur jarayonning ijtimoiy-falsafiy jihatlari, ayniqsa globallashuvning kompleks ta'siri nuqtayi nazaridan yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Bu holat mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash omillarini yaxlit yondashuv asosida o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Masalani globallashuvning asl mohiyatini tahlil qilish orqali oydinlashtirish maqsadga muvofiqdir. Globallashuv — dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi o'zaro aloqalari va munosabatlari majmuini ifodalovchi murakkab jarayondir. Ushbu jarayon jahon mamlakatlari o'rtasidagi an'anaviy ichki chegaralarning nisbatan yo'qolishi, turli sohalarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning jadal sur'atlarda keng hududlarga tarqalishi bilan tavsiflanadi. Xususan, globallashuv "...voqea va hodisalarning umuminsoniy miqyosga ega bo'lishi, Yer sharini qamrab olishi"[3] bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda

globallashuv “globallashuv — to‘xtovsiz davom etadigan tarixiy jarayon, jahonning “gomogen”lashuvi va universallashuv jarayoni, milliy chegaralarning yuvilib ketishi”[4] sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuvlar globallashuvning ko‘p qirrali va murakkab ijtimoiy jarayon ekanligini, uning milliy va umuminsoniy omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirini yaqqol namoyon etadi.

Globallashuv bugungi kunga qadar turli sohalarda yaqqol namoyon bo‘lib kelmoqda. Jumladan, 2007-yilda AQShda yuzaga kelgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz globallashuv jarayonlarining iqtisodiy sohaga ta‘sirini ochiq-oydin namoyish etdi. Mazkur inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida dunyo mamlakatlari o‘zaro hamkorlikda iqtisodiy inqirozga qarshi kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga majbur bo‘ldilar. Siyosiy sohada esa davlatlar o‘z milliy xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida mintaqaviy hamda xalqaro tashkilotlar doirasida integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirmoqda. Madaniy sohada globallashuv jarayonlari “ommaviy madaniyat” tushunchasining keng tarqalishi orqali namoyon bo‘lib, bu holat ayrim hollarda milliy qadriyatlar va an‘analar uchun muayyan tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Jahon mamlakatlari madaniy makoniga “ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi salbiy holatlardan yoshlarni asrash, ularning ta‘lim-tarbiyasiga mas‘uliyat bilan yondashish har bir ongli jamiyat a‘zosining muhim vazifasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, “Bu borada asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analar, ajdodlarning boy ma‘naviy merosiga tayanamiz”[1. – B.277.].

Tahlil va natijalar. Globallashuv va keskin raqobat sharoitida dunyodagi harbiy-siyosiy vaziyatning murakkablashuvi jahon mamlakatlarida yangi tahdidlar, qarama-qarshiliklar va xavf-xatarlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib, uning ijtimoiy va strategik zarurati tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Chunki milliy xavfsizlik, davlat barqarorligi va jamiyatning uzoq muddatli rivojlanishi bevosita yosh avlodning ma‘naviy yetukligi, fuqarolik mas‘uliyati hamda Vatanga sadoqat tuyg‘ulari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu ma‘noda, “Barchamizga ma‘lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma‘naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”[2].

Bugungi globallashuv davrida voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy mentalitetimizga mos kelmaydigan turli tadbir va marosimlardan voz kechish jamiyatning istiqboldagi barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday ijtimoiy jarayonda bo‘lgani kabi, globallashuvning ham yoshlar tarbiyasiga nisbatan ikkiyoqlama — ijobiy va salbiy ta‘sir jihatlari mavjud. Mazkur jarayonning ijobiy ta‘siri, avvalo, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyati va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining kengayishi orqali namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, globallashuv yoshlarning dunyoqarashi va fikrlash doirasining kengayishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda nafaqat rivojlangan xorijiy davlatlarda, balki O‘zbekistonda ham xalqaro miqyosdagi festival, konferensiya va ilmiy-amaliy anjumanlarning o‘tkazilishi globallashuv jarayonlarining amaliy ifodasidir. Jumladan, 2018-yilda mamlakatimizda ilk bor dunyoning 73 davlatidan tashrif buyurgan qariyb 300 nafar ishtirokchi qatnashgan “Xalqaro maqom san’ati” festivali o‘tkazildi. Ushbu festival doirasida turli millat va elat vakillarining bir maydonga jamlanishi yoshlarning boshqa xalqlarning madaniyati, milliy qadriyatlari va san’ati bilan yaqindan tanishishiga imkon yaratdi. Shuningdek, 2023-yilda Guliston shahrida o‘tkazilgan “Xalqaro baxshichilik san’ati” festivalida 30 dan ortiq davlat va ikki xorijiy tashkilot (UNESCO va ISESCO) vakillaridan iborat 167 nafar xorijiy mehmon ishtirok etdi. Shu yili Marg‘ilon shahrida tashkil etilgan “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor san’ati festivalida esa qariyb 20 ta davlat vakillari qatnashdi. Bunday tadbirlar yoshlarning milliy qadriyatlarga nisbatan hurmati va milliy madaniyatimizga bo‘lgan iftixorini oshirish bilan birga, boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan qiziqish va bag‘rikenglikning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, globallashuv bilim va kasbiy mahoratning shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlarning ta’lim dasturlari bilan tanishish, xalqaro onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish, xorijiy oliy ta’lim muassasalarida tahsil olish va xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish imkoniyatlarining kengayishi yoshlarning professional rivojlanishiga zamin yaratadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil boshiga kelib xorijiy davlatlarda tahsil olayotgan o‘zbekistonlik yoshlar soni 150 ming nafardan oshgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich bir yil davomida qariyb 24 ming nafarga ko‘payganini anglatadi. Mazkur holat yoshlarning bilim olishga bo‘lgan intilishi va globallashuv sharoitida ta’lim migratsiyasining kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, globallashuv yoshlarning zamonaviy texnologiya va innovatsiyalar bilan tanishish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, IT, tibbiyot, ta’lim va biznes sohalaridagi jadal rivojlanish yoshlarni kreativ fikrlashga, yangi g‘oyalarni ilgari surishga va amaliyotga tatbiq etishga undaydi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda IT sohasi jadal rivojlanib, IT-park rezident kompaniyalari tomonidan trillionlab so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilmoqda hamda minglab yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda. “Bir million o‘zbek dasturchisi” loyihasi doirasida mamlakat hududlarida IT markazlarining tashkil etilishi yoshlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

To‘rtinchidan, globallashuv xorijiy tillar va madaniyatlarni o‘rganish jarayonini jadallashtiradi. Xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini egallash yoshlarning jahon ilmiy-axborot makoniga integratsiyalashuvini ta’minlab, zamonaviy bilim va tajribalarni o‘zlashtirishiga keng

imkoniyat yaratadi. Bu esa ularning mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega, jamiyat va davlat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Globallashuv jarayonlarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat ijobiy, balki muayyan salbiy jihatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonning salbiy ta'sirlarini quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, globallashuv milliy meros, an'ana, urf-odat va qadriyatlarning zaiflashuviga olib kelmoqda. Turli millat va elatlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi global brendlar, kino, musiqa, sport va moda industriyasi orqali yoshlar ongiga faol singib bormoqda. Natijada mahalliy va milliy qadriyatlarning yoshlar orasidagi ahamiyati pasayib, ayrim holatlarda ularning unutilishi kuzatilmoqda. Masalan, bugungi kunda jamiyatimizga kirib kelgan "kibersport", ya'ni virtual makondagi musobaqalar ommalashib, sport turi darajasiga ko'tarilmoqda, buning natijasida yoshlar orasida "Kurash", "Arqon tortish", "Uloq", "Darboz", "Chavandozlar musobaqasi" kabi milliy o'yinlarning asta-sekinlik bilan muomaladan chiqib borayotgani kuzatiladi. Yoshlar bo'sh vaqtini an'anaviy jismoniy va jamoaviy o'yinlardan ko'ra, gadjetlar va ijtimoiy tarmoqlarga bag'ishlayotgani ushbu jarayonning yaqqol ko'rinishidir.

Ikkinchidan, yoshlarning g'arb madaniyatiga bo'lgan qiziqishining ortib borishi ham globallashuvning salbiy oqibatlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. G'arb madaniyatiga xos hayot tarzi, qadriyatlar va qarashlar ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga faol singdirilmoqda. Bu holat ayrim yoshlar orasida mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tanqidiy baho berish ko'nikmalarining sustlashishiga olib kelmoqda. "Ma'rifat" gazetasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, g'arb jamiyatlarida oila institutiga bo'lgan munosabatning o'zgarib borayotgani, nikoh va farzand mas'uliyatidan qochish holatlarining ko'paygani kuzatilmoqda. "Bunday qarashlar bizning jamiyatimizga ziddir, bu kabi salbiy odatlar yoyilishining oldini olishimiz kerak". Aks holda, bu jarayonlar kelajakda xalq e'tiqodining zaiflashuvi, jamiyatning ma'naviy tanazzulga yuz tutishi va milliy barqarorlikka tahdid tug'dirishi mumkin.

Uchinchidan, axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi va yolg'on ma'lumotlarning keng tarqalishi yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va turli internet saytlarida tarqalayotgan axborotlarning barchasi ham ishonchli emas. Asossiz va yolg'on ma'lumotlar yoshlar ongida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantirib, ularning hayotiy pozitsiyasi va kelajak maqsadlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Xususan, yoshlarning bilib-bilmay turli ekstremistik yoki terroristik guruhlarini moliyalashtirib qo'yishi, yolg'on axborotlar natijasida shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazilishi, taqiqlangan diniy materiallarga nisbatan ijobiy munosabat bildirilishi kabi holatlar jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'diradi.

To'rtinchidan, zamonaviy texnologik vositalarga qaramlik globallashuv davrining muhim salbiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi yoshlarning jismoniy faolligining pasayishiga, sog'liq bilan bog'liq muammolarning ko'payishiga va immunitetning zaiflashishiga olib kelmoqda. Shuningdek, diqqatni jamlay olish, tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi intellektual ko'nikmalarning susayishi ham mazkur jarayon bilan bevosita bog'liqdir.

Umuman olganda, axborot asri yoshlar uchun keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratgan bo'lsa-da, ularning axloqiy va ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini inkor etib bo'lmaydi. Zotan, "yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala, haqiqatan ham, hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda".

Globallashuv sharoitida yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatida ham muayyan o'zgarishlar kuzatilmoqda. Afsuski, bugungi kunda yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishi va intilishi nisbatan pasayib bormoqda. Avvallari harbiy xizmat fuqarolik burchi, sharaf va milliy g'urur timsoli sifatida qabul qilingan bo'lsa, hozirgi davrda ushbu tushunchaning mazmuni ma'lum darajada susaygani kuzatiladi. Bunga, bir tomondan, zamonaviy kasblar va iqtisodiy manfaatlarning ustuvorlik kasb etishi, ikkinchi tomondan, harbiy xizmatning murakkab va mashaqqatli jarayon sifatida talqin qilinishi sabab bo'lmoqda. Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali harbiy mojarolar haqidagi salbiy axborotlarning ko'pligi yoshlar ongida harbiy xizmatga nisbatan qo'rquv va ehtiyotkorlik hissini kuchaytirmoqda.

Bundan tashqari, harbiy-vatanparvarlik tadbirlarining ayrim hollarda faqat nazariy targ'ibot bilan cheklanib qolayotgani, amaliy mashg'ulotlar va keng jamoatchilikni jalb etuvchi tadbirlarning yetarli darajada tashkil etilmayotgani ham yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, globallashuv sharoitida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tizimli, kompleks va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa. O'tkazilgan ilmiy-tahliliy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashuv va keskin raqobat sharoitida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammo hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari bir tomondan yoshlarning dunyoqarashi, bilim va kasbiy salohiyatining kengayishiga xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan milliy qadriyatlarining zaiflashuvi, ma'naviy tahdidlar, axborot xurujlari va harbiy xizmatga nisbatan befarqlik kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ta'lim tizimi, oila, mahalla, ijtimoiy institutlar va ommaviy axborot vositalarining

uzviy hamkorligini talab etuvchi murakkab va ko'p bosqichli jarayondir. Ilmiy manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, harbiy-vatanparvarlik faqat harbiy xizmatga tayyorgarlik bilan cheklanmay, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy yetukligi, fuqarolik mas'uliyati, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotiraga sadoqatini shakllantirish orqali namoyon bo'ladi.

Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligi amaliy faoliyat, ko'rgazmali tadbirlar, tarixiy merosga tayangan tarbiya shakllari, harbiylashtirilgan sport o'yinlari hamda yoshlarning real tajribaga jalb etilishi bilan bevosita bog'liq ekani aniqlandi. Faqat nazariy targ'ibot bilan cheklanish mazkur jarayonning kutilgan natijasini bermasligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash milliy xavfsizlikni ta'minlash, jamiyat barqarorligini mustahkamlash va davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois ushbu yo'nalishda tizimli, kompleks va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillar uyg'unligini ta'minlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. –B.277.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilishining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo'llangan bayram tabrigi. –Toshkent: 2017.// www.prezident.uz
3. Madvaliyev A, Xudoyberganova D. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. –Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2020. –B.234.
4. Ibragimov S Jurnal "Orientalrenaissance: innovative, educational, natural andsocialsciences". June 2022. Volume 2.Issue 11.–P.398.
5. Mirzayev A.R. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish jarayonida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion texnologiyalari. Diss Avtoref. –Toshkent: 2024. –B.46.; Xonimqulov A.R. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talabalarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmini takomillashtirish. Diss. Avtoref. –Toshkent: 2023. –B.51.; Akramova Sh. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari. –Toshkent: Ma'naviyat, 2018. –B.32.; Umarov M.X, Usmonov S.X. Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi. –Toshkent: Akadem nashr, 2019. –B.188.; Hamrayev N. Yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasi. –Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1973. –B.48.; Utanov S. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. –Toshkent: Fan nashriyoti, 1977. –B.48.; Jumanazarov U. Jasorat va sadoqat talqini. –Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.–

B.128.; Usmonov K.X. O'zbek halqi ma'naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g'oyalarining talqini. Diss. Avtoref. –Toshkent: 2017. –B.42.; Redjaboyev A.D. Yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Diss. Avtoref. –Toshkent: 2004. –B.23.; Qurbanov R.Y. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni. Diss.Avtoref. –Toshkent: 2008.–B.49.; Yoqubov A.F. O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarni takomillashtirish. (10-11 sinf o'quvchilari misolida) Diss. Avtoref. –Chirchiq: 2022. –B.57.; Xaydaraliyev X.X. Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish. (harbiy ta'lim yo'nalishlari misolida) Diss. Avtoref. –Namangan: 2021. –B.57.; Saidov H.G'. Vatanparvarlik va milliy g'ururning harbiy xodimlar professiogrammasidagi o'rni. Diss. Avtoref. –Samarqand: 2021. –B.49.